

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 372.87.769:069+002:651.

**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR ESTETIK MADANIYATINI MILLIY MUSIQA
TARBIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI****ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗИКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****TASKS OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN
BASED ON NATIONAL MUSIC EDUCATION****Tursunova Laylo Ergasheva**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Jahon xalqlarida shunday madaniyatlar mavjud bo'lgan ham muomala, munosabat, xushchaqchaq va yoqimli kayfiyat beradigan hodisa voqealarni, fojyaviy, rutubatli onlarni musiqa bilan ifodalaydilar. Insoniyat taraqqiyoti davomida musiqa eng murakkab san'at turi sifatida, maftunkorlik ila estetik konsepsiyalarni hissiyot orqali ifoda etib kelmoqda. Musiqa asarlarining mazmun- mohiyati inson, ilohiyot, hayot, tabiiyat va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan Go'zallik, Ulug'vorlik, Muxabbat, Hissiyot, Evrilish o'rtasidagi murakkab aloqadorlikni tarannum etuvchi jarayondir. Shu bois, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosni asrab-avaylash, ijtimoiy ongda estetik tafakkurni rivojlantirish, musiqaning tarbiyaviylik xususiyati, va forig'lovchi ma'naviy estetik hodisa ekanligi muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Аннотация

Есть такие культуры у народов мира, в которых с помощью музыки также выражают поведение, отношения, счастливые и приятные события, трагические и грустные моменты. На протяжении всего развития человечества музыка, как сложнейший вид искусства, очаровательно выражала эстетические понятия посредством эмоций. Сущность музыкальных произведений – это процесс, прославляющий сложные взаимоотношения Красоты, Великолепия, Любви, Эмоций и Разложения, связанные с человеком, теологией, жизнью, природой и обществом. Поэтому в повышении эстетической культуры молодежи, сохранении классического и современного музыкального наследия, развитии эстетического мышления в общественном сознании большое практическое значение имеет воспитательный характер музыки, то, что она является просветительским духовно-эстетическим событием.

Abstract

There are such cultures in the nations of the world, in which they also express behavior, attitudes, happy and pleasant events, tragic and sad moments with music. Throughout the development of mankind, music, as the most complex form of art, has been charmingly expressing aesthetic concepts through emotion. The essence of the musical works is a process that glorifies the complex relationship between Beauty, Magnificence, Love, Emotion, and Decay related to man, theology, life, nature, and society. Therefore, in raising the aesthetic culture of young people, preserving the classical and modern musical heritage, developing aesthetic thinking in the social consciousness, the educational nature of music, and the fact that it is an enlightening spiritual aesthetic event are of great practical importance.

Kalit so'zlar: fojyaviylik, rutubatli, ulug'vorlik, go'zallik, hissiyot, evrilish, tarannum**Ключевые слова:** трагический, влажный, величие, красота, эмоции, эволюция, хвала**Key words:** tragic, moist, grandeur, beauty, emotion, evolution, praise**KIRISH**

Jahonda musiqa san'atining zamonaviy talaba yoshlar estetik madaniyatiga ta'sirini ilmiy o'rganish, ularning estetik did va tafakkurini yuksaltirishda milliy musiqa madaniyatining o'zni masalalari dolzarb ijtimoiy muammolardan biri sifatida baholanmoqda. Bu esa zamonaviy fan yutuqlaridan ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlashda foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosni asrab-avaylash, ijtimoiy ongda musiqiy tafakkurni rivojlantirish va bu asosda musiqaning tarbiyaviylik xususiyati orqali musiqani harakatlantiruvchi va forig'lovchi ma'naviy estetik hodisa ekanligi va bugungi kunda inson – madaniyat – jamiyat munosabatlarini hamda yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish haqidagi tushunchalarni falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

PEDAGOGIKA

Bugungi kunning eng dolzarb masalasi bu yosh avlodning tarbiyasidir. Shuningdek, jamiyatning ravnaq topishi va rivojlanishi kelajak avlod tarbiyasi va madaniyatiga bog'liqdir. Tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash orqali uning aqliy, ma'naviy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga ta'sir kuchini o'tkazadi, shuning uchun ham u uzluksiz jarayondir. Kelajakning asosiy vazifalardan biri yoshlarning ta'lim va tarbiyasida ularni ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yurt tinchligi hamda osoyishtaligi, xalqimizning mustaqilligiga bog'liqlik yo'lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori O'zbekistonning olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida anglash qiyin emas.

O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmat, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Farzand tug'ilishi bilan unga alla orqali ota-onaning orzu-umidlari, his-hayajonlari, o'y-kechinmalari ohang orqali singdirib boriladi. Bola ulg'ayib borgan sari unga turli janrdagi qo'shiq-aytim va kuy-ohanglar hamroh bo'ladi. Qo'shiq aytishning kuy-ohang va she'riy ma'no-mazmuni o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z tarbiyasiga oladi va bu bolaning xatti-harakatlarida ko'rina boshlaydi. Bu jarayonda farzandlarimiz qanday kuy-qo'shiq eshitayotganligini uning harakati jarayonidagi o'zgarishlarida kuzatib borish mumkin bo'ladi.

Milliy musiqa va estetik tarbiya integratsiyasi asosida yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish va rivojlantirish bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosida xalq ijodini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish maqsadida musiqa ta'limi va tarbiyasi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanlarini o'qitish davomida o'z o'rnini topmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIJA

Musiqa madaniyatining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik, siyosiy asoslarining ilmiy tahliliga bag'ishlangan qator tadqiqot ishlari hamda maqolalar chop etilgan. Bu borada F.Ibragimova, Qodirqul Ro'zmatzoda, A.Qambarov kabi olimlarning maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini alohida qayd etish mumkin.[1] Biroq yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlarida estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqaning o'rnini masalalari falsafiy jihatlari maxsus o'rganilmaganligi ham mazkur tadqiqot ishining ahamiyatini oshiradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan V.Beloborodova, E.Abdulin, Ye.Bodina, V.Rajnikov, V.G.Sumaroxova, T.V.Cherednichenko, S.F.Gurbanaliev, A.G.Kostyuk, L.S.Cherkashina, V.G.Sumaroxovalar tadqiqotlarida musiqa estetikasining metodologik muammolari, lirik qo'shiqlarning musiqiy-estetik xususiyatlari, musiqani idrok etish jarayoni masalalari, musiqaning tarbiyaviy funksiyasi, estetika kategoriyalarining musiqa san'atida namoyon bo'lish xususiyatlariga san'atshunoslik qonuniyatlari va metodologiyasi tamoyillaridan kelib chiqqan holda yondashilgan. I.Zemsovskiy, K.Kvitka, V.Goshovskiy, Ye.Mojeyko, B.Erzakovich, B.Karakulov, D.Kabalevskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa muammoning turli aspektlari o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida qo'shiqlarning musiqiy tili va ularning lokalligi o'ziga xosligi kabi masalalarni estetik jarayon sifatida tahlil qilingan.

G'arb mamlakatlarida musiqa madaniyatining muammolari bo'yicha O.Shpengler, A.Toynbi, V.Gegel, M.Veber, A.Shopengauer, D.Karomatli, T.Levin, Yu.Elsner va A.Yung kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, milliy musiqiy madaniyatni rivojlantirish hamda uning mohiyati va mazmuniga oid fundamental tadqiqotlar nemis olimi O.Shpengler va ingliz tarixchisi A.Toynbilar tomonidan ilgari surilgan. Shuningdek, V.Gegel musiqani go'zallikni his qilishda ma'lum bosqich deb biladi. Uning aytishicha haykaltaroshlik me'morlikning ajralmas qismi bo'lganidek, musiqa ham biron bir tasvirni tovush orqali "chizadi". A.Shopengauer esa musiqa odamni o'ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko'ngilni ochadi, lekin boshqa san'atlarda bo'lgani kabi unda g'oya yo'q, deb hisoblaydi. M.Veberning aytishicha, muhabbat insonlarga qanchalik kerak bo'lsa, musiqa ham shunchalik kerak.

G'arb mamlakatlari faylasuflaridan miloddan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasufi Aflotun quyidagi g'oyani aytib o'tgan: "Musiqa ma'naviy tomondan inson ruhiga ma'lum darajada ta'sir qiladi, shuning uchun ham u yoshlar tafakkurining yuksalishiga ta'sir qiladi." Shuningdek, Aflotun: "Musiqa butun olamni ilhomlantiradi, ruhni qanotlar bilan ta'minlaydi, tasavvur parvozigga yordam beradi"-degan nazariyani ham ilgari surgan. Qadimgi Yunonistonda musiqa shifobaxsh kuchga ega

hisoblangan. "Pifagor maktabi"da barcha o'quvchilar uyqudan avval ashula va madhiyalar bilan fikrlarini tozalaganlar. Aflotun: "Agar siz musiqani to'g'ri ishlatsangiz, u sog'likka foydali ta'sir ko'rsatadi"-deb aytgan.

Qadimgi yunon faylasufi, Aflotunning shogirdi Arastu esa musiqa haqida shunday degan: "Musiqa ruhning estetik tomoniga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkin"; "Musiqa axloqni yuksaltiradi".

"Musiqa eshitish sezgilari o'yining qoidalarga asoslanib, uni jonlantiradi, uni turli yo'llar bilan hayajonga soladi, shuning uchun u go'yo hislar tildir, musiqa tovushlari ohangdir va quloq uchun bir xil xizmat qiladi. Ular his-tuyg'ularni bu makonda bo'lgan har bir kishiga etkazadilar va qatnashuvchilar ko'p bo'lsada, jamiyatni kamaymaydigan zavq bilan ta'minlab berishga qodirdir"-deydi nemis faylasufi I.Kant [1,b.389].

I.Kantning ushbu bayonotida musiqaning nafaqat insonga ta'siri, balki uning ijtimoiy ahamiyati ham qayd etilgan. Kant musiqaning idroki jamoaviy bo'lishi mumkinligiga, shaxsning estetik ehtiyojlarini qondirish ham birgalikda sodir bo'lishi mumkinligiga ham e'tibor berdi. Shuningdek, I.Kant musiqaing insoniyat taraqqiyotiga qo'shadigan yana bir muhim jihatini ta'kidlab o'tgan, ya'ni: "Musiqa, raqs va ijro-bu so'zsiz muloqotdir"-degan [2,b.526].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aristotel asarlarida san'atning tarbiyaviy roli (estetik roli) katta o'rin egallaydi. U o'zining "Poetika" asarida san'at asarlari inson qalbini salbiy ehtiroslardan tozalab, uni ma'naviy jihatdan boyitadi, deb yozadi. Aristotel estetik tarbiyaning vositasi sifatida musiqaga katta ahamiyat qaratadi. Biroq uning fikricha, san'atning boshqa turlari ham insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga katta yordam beradi.

G'arb mamlakatlarida musiqaning falsafiy mohiyati, uning estetik ahamiyati, tarbiyaviy funksiyalari, musiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari O.Shpengler, A.Toynbi, V.Gegel, M.Veber, A.Shopengauer, D.Karomatli, T.Levin, Yu.Elsner va A.Yung kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, milliy musiqiy madaniyatni rivojlantirish hamda uning mohiyati va mazmuniga oid fundamental tadqiqotlar nemis olimi O.Shpengler va ingliz tarixchisi A.Toynbilar tomonidan ilgari surilgan. Shuningdek, V.Gegel musiqani go'zallikni his qilishda ma'lum bosqich deb biladi. Uning aytishicha haykaltaroshlik me'morlikning ajralmas qismi bo'lganidek, musiqa ham biron bir tasvimi tovush orqali "chizadi". A.Shopengauer esa musiqa odamni o'ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko'ngilni ochadi, lekin boshqa san'atlarda bo'lgani kabi unda g'oya yo'q, deb hisoblaydi. M.Veberning aytishicha, muhabbat insonlarga qanchalik kerak bo'lsa, musiqa ham shunchalik kerak.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan V.Beloborodova, E.Abdulin, Ye.Bodina, V.Rajnikov, V.G.Sumaroxova, T.V.Cherednichenko, S.F.Gurbanaliev, A.G.Kostyuk, L.S.Cherkashina, V.G.Sumaroxovalar tadqiqotlarida musiqa estetikasining metodologik muammolari, lirik qo'shiqlarning musiqiy-estetik xususiyatlari, musiqani idrok etish jarayoni masalalari, musiqaning tarbiyaviy funksiyasi, estetika kategoriyalarining musiqa san'atida namoyon bo'lish xususiyatlariga san'atshunoslik qonuniyatlari va metodologiyasi tamoyillaridan kelib chiqqan holda yondashilgan. I.Zemsovskiy, K.Kvitka, V.Goshovskiy, Ye.Mojeyko, B.Erzakovich, B.Karakulov, D.Kabalevskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa muammoning turli aspektlari o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida qo'shiqlarning musiqiy tili va ularning lokalligi o'ziga xosligi kabi masalalarni estetik jarayon sifatida tahlil qilingan.

Markaziy Osiyoda xalq poetik va musiqa madaniyati dastlab sinkretik (qorishuv) holatda bo'lganligi to'g'risidagi manbalar "Avesto" kitobida keltirib o'tilgan. Shuningdek, O'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari ham o'z davrida madaniyatning adabiyot, she'riyat, musiqa, xattotlik, notiqlik singari turlarini o'rganishga oid boy falsafiy-estetik meros qoldirganlar.

Qadimiy musiqa risolalarida yozilishiga ko'ra, musiqaning eng ko'p tarqalgan janrlari bo'lgan kuy, ashula va raqslar uzoq o'tmishdan beri O'zbekiston hududida rivojlangan. O'rta va Yaqin sharq xalqlari musiqiy estetik tafakkurining muhim yo'nalishlaridan biri – musiqa to'g'risidagi axloqiy-estetik me'yorlar va tasavvurlarning vujudga kelishi hamda rivojlanishi Imom al-Buxoriy nomi bilan bog'liq.

Imom al-Buxoriy yashagan davrdan keyin o'tgan ming yildan ziyod vaqt davomidan hozirgi kunlarga qadar ham musiqaning ijtimoiy hayotda zarurligi to'g'risida qizg'in bahslarda buyuk muhaddis to'plagan hadislar eng nufuzli huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilib keldi. Imom al-Buxoriy tasnif etgan hadislar, ilk o'rta asrlarga oid barcha muqaddas matnlar singari, majoziy, ko'p ma'noli

PEDAGOGIKA

va ramziydir. Ayni shu keyingi ikki omil musiqa tabiati to'g'risida falsafiy fikrlash uchun sabab va rag'bat bo'lib, uning ichki mazmunini tadqiq etish uchun turtki bo'ldi.

Musiqiy-nazariy fikrning mumtoz namunalari ham ayni musulmon madaniyati gullab yashnagan davrda yaratildi. O'zbek sharqshunos olimlarining yangi tadqiqotlari va O'rta asrdagi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining musiqa o'ld risolalari o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Buyuk qomusiy alloma va mutafakkirlar Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kavkabi, mutassavuf olimlar – Imom G'azzoliy, Kalobodiy Buxoriy kabi mutafakkirlar O'rta va Yaqin Sharq xalqlari badiiy an'alarini ilmiy umumlashirish, qadimgi yunonlarning musiqa nazariyasi sohasidagi yutuqlarini qayta o'rganish negizida musiqa ilmi sohasida chinakam fundamental asarlar yaratishdi. Ular musiqiy madaniyatni axloq va nafosat mezonlari bilan baholaganlar, uning mohiyatini axloq va nafosat uyg'unligida ko'rganlar. Jumladan, Abu Nasr Muhammad al-Forobiy san'atning, ayniqsa, she'riyat, musiqaning ruhiy hayot in'ikosi ekanligini hamda uning kishilarga chuqur estetik ta'sir etish xususiyatlarini alohida ta'riflaydi.

O'zbekistonda musiqa falsafasi, musiqiy tafakkurni shakllantirish, ijtimoiy ongda musiqa madaniyatini rivojlantirish hamda musiqa madaniyati va uning umumnazariy va metodologik masalalari quyidagi A.Fitrat, I.M.Mo'minov, M.M.Xayrullaev, T.N.Qori-Niyoziy, T.Maxmudov, E.Umarov, B.Xasanov, X.Yuldoshev, V.M.Belyaev, I.R.Rajabov, Yu.Rajabiy, F.Karamatov, T.G'ofurbekov, F.Asqar, Z.Oripov, Sh.I.Ayxodjaeva, A.I.Umarov, S.Mannopov kabi musiqashunos kabi olimlarning asarlarda o'z ifodasini topgan.

O'zbek milliy musiqa madaniyati inson ruhiyatini ifodalovchi chuqur mazmunli, asrlardan asrlarga o'tib kelgan an'anaviy turlarga ega bo'lgan milliy merosdir. Uni o'rganuvchi, to'plovchi, sharhlovchi olimlar qatorida Abdurauf Fitratning faoliyati ham diqqatga sazovordir. Uning "O'zbek klassik (mumtoz) musiqasi va uning tarixi" kitobida XX asrning 20-yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatida yangi oqimlar paydo bo'layotgani aks etdi.

Mashhur o'zbek musiqashunosi va bastakori Yu.Rajabiy umr bo'yi xalq kuylarini yozib olib, to'plab, ularni nashr qilib merosimizni saqlab qolishga ulkan hissa qo'shgan. "O'zbek xalq musiqasi" ko'p tomli to'plamni 1-4-tomlarini Yu.Rajabiy nashr qildirgan va ularda o'zbek xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda milliy qadriyatimiz bo'lgan milliy maqom san'atiga oid ma'lumotlarni batafsil yoritgan.

Falsafa va estetikada musiqiy madaniyatning ulkan tarbiyaviy salohiyati: insonning g'oyaviy, axloqiy (mehr-oqibat, rahm-shavqat, keksalarga hurmat va h.x.o) fazilatlarini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati, uning ijodkorligi, intizomi, yuksaklikka intilishi ta'kidlanadi. Ko'plab mutafakkirlar musiqa madaniyatining shaxs estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahmiyati haqida gapirib o'tganlar. Miloddan avvalgi IV-asrda Aflotun shunday degan edi: "Eng muhim tarbiya vositasi musiqa san'ati emasmi, chunki usul va uyg'unlik eng avvalo ong ichini qamrab oladi". Bu borada Aristotel esa shunday yozib qoldirgan edi: "Musiqasi madaniyati inson borlig'ining zarur ma'naviy atributi bo'lib, u ongning axloqiy-estetik tomoniga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishga qodir".

Musiqa madaniyatining qadr-qimmatini odob-axloq bilan tanilgan bo'lib, komil va go'zallikka ko'tariladi. Platon va Aristotel musiqaning jamoat ishlarida tarbiyaviy, o'zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan. Antik davrda musiqaning munosabat, shakllanish, jarayon, harakat kabi ma'naviy kategoriyalari tasdiqlangan.

Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy, kommunikativ va boshqa sohalar o'zaro bog'liq bo'lgan juda murakkab ta'limlardan biridir. Bu murakkab ta'limning asosi esa - musiqa bilan bog'liqdir.

Musiqa madaniyati ancha murakkab va keng qamrovli tushunchadir. Uni o'rganish uchun ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar (D.B.Kabalevskiy, M.T.Usova, A.V.Sokol, L.G.Dmitriyeva, A.N.Soxor, R.N.Shafeev).

Musiqa madaniyatining eng keng tarqalgan tushunchalari quyidagilardir:

- Tavsiflovchi ta'riflar, masalan, musiqa madaniyati barcha turdagi musiqiy faoliyat turlarining yig'indisi sifatida (kompozitsiya, ijro, musiqiy idrok);

- Ijtimoiy meros va an'analarga urg'u beradigan tarixiy ta'riflar (masalan, meros bo'lib qolgan musiqa madaniyati jabhalari)

- Ijtimoiy meros va an'analarga urg'u beriladigan me'yoriy ta'riflar (masalan, musiqa madaniyati ijtimoiy muhit tomonidan belgilanadigan turmush tarzi sifatida);

- Xulq-atvor va qadriyatlarni ta'kidlaydigan ta'riflar (masalan, madaniyat - bu moddiy qadriyatlar);

- Psixologik ta'riflar, bunda musiqa madaniyatining ahamiyati uning muayyan muammolarni hal qilish natijasi ekanligida ko'rinadi (masalan, musiqa madaniyati hayot tarzi sifatida);

- O'quv jarayonida musiqa madaniyati bilan tanishishni ta'kidlaydigan ta'riflar;

- Musiqa madaniyatini tashkil etish, tasniflash yoki modellashtirishni ta'kidlaydigan tarkibiy ta'riflar;

- Madaniyat insonlarning (bastakorlar, ijrochilar, sayqallovchilar, ovoz muhandislari) ijod mahsuli ekanligini, ularning faoliyati mahsuli ijtimoiy o'zaro ta'sir mahsuli sifatida avlodan-avlodga o'tib borishini ta'kidlaydigan genetik ta'riflar;

- G'oyalarni ta'kidlaydigan ta'riflar (masalan, musiqa madaniyati sub'ektdan shaxsga o'tadigan g'oyalar oqimi).

Axloqiy va estetik his-tuyg'ular, e'tiqodlar, musiqiy did va ehtiyojlar, bilim, ko'nikma va malakalarsiz musiqa san'atini (idrok etish, ijro etish) egallash mumkin emas (idrok etish, ijro etish). Shuningdek, shaxsning musiqiy -ijodiy qobiliyatlari ham musiqa madaniyatining ajralmas qismidir. Shunday qilib, musiqa madaniyati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tarkibiy elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan tizim sifatida taqdim etilishi mumkin.

A.N.Soxor o'zining "Musiqa sotsiologiyasi va estetikasi masalalari" asarida musiqa madaniyatini murakkab tizim sifatida ko'rib chiqadi, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: ma'lum bir jamiyatda yaratilgan va saqlanib qolgan musiqiy qadriyatlar: yaratish, saqlash va saqlash bo'yicha faoliyatning barcha turlari: musiqiy qadriyatlarni tarqatish, ko'paytirish va ulardan foydalanish; ushbu turdagi faoliyatning barcha subyektlari birgalikda va ularning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bilimlari, ko'nikmalari va boshqa fazilatlar; barcha muassasalar va ijtimoiy institutlar, shuningdek, ushbu faoliyatga xizmat qiluvchi asbob-uskunalar va jihozlar".

XULOSA

Musiqa muayyan bir millatning his-tuyg'u va kechinmalarini ifoda etadi, shuning uchun ham unga milliylik xosdir. Ko'p asrlik madaniyat tarixiga ega bo'lgan millatning butun kechmishini an'ana va qadriyat mazmun - mohiyatlarini, hozirgi kunda yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirishdagi istiqbollik yo'llariga xizmat qilishini ko'zda tutadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonlarida milliy musiqa ishtirok etar ekan, uning ijtimoiy va ma'naviy hodisa sifatidagi mohiyati, ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, musiqaga ham estetik, ham axloqiy izlanishlar obyekti sifatida murojaat qilinadi. Mana shu jihat o'z navbatida, axloq bilan nafosat, badiiylik bilan estetikaning o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois musiqaning tarbiyaviy vazifasidan yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda undan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa yoshlarning tashqi olamga estetik munosabatini shakllantirish xususiyatiga ega. Chunki musiqa o'zining kuy-ohanglari tabiiyligi va soddaligi bilan ham ajralib turadi va unga xos bo'lgan milliy musiqa orqali yoshlarning estetik didi va madaniyat qonunlarini san'at taraqqiyoti hayotiga bog'liqligini isbotlaydi. Musiqa – ijtimoiy ong shakllari sifatida musiqiy estetik tafakkurni rivojlantiradi va jamiyat badiiy-musiqiy faoliyatini izga solib turadigan daraja hisoblanadi.

Musiqa hamisha ilmiy kashfiyotlarning doyasi, ilhomchisi bo'lgan, musiqa tufayli inson sezgilari ijtimoiylashadi, fikrlari tiniqlashadi, borliqni idrok etish jarayonlari faollashadi.

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqiy merosga, uning noyob qadriyatlariga katta e'tibor orqali erishishiladi. Demak, yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qilishi ularning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, san'at ilm-fan bilan doimo uzviy bog'liqdir.

Jamiyat yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va umuman, erkin ijodiy faoliyati yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish jarayonida yetarli obyektiv, subyektiv sharoitlarni yuzaga keltiradi. Shu bois yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqiy tarbiya metodlari, mazmuni, sifati hamda samaradorlikka erishish yo'llari, qonuniyatlarini to'liq o'rgatish orqali milliy musiqaning estetik tafakkur qoidalari bilan tarbiyalaydi. Bunda, nafosat, musiqa fiziologiyasi, musiqa pedagogikasi, musiqa psixologiyasi kabi qator fanlarning tajribalariga tayanish lozimdir. Chunki,

PEDAGOGIKA

estetik madaniyatning boshqa fanlar bilan aloqasini aniqlash uning ilmiy usulini belgilashga, o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Milliy musiqa inson ruhiyatiga tez va oson ta'sir ko'rsatuvchi kuchdir. Shu bilan birga O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqaning o'rni dolzarb vazifalarga ega bo'lib, milliy musiqadagi hissiy kechinmalar, ya'ni ulug'vorlik, nafosat, go'zallikning mohiyati, estetik tafakkurning qonuniyatlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Estetik madaniyat o'z qudrati imkoniyatlari bilan insoniyat, qolaversa kelajak avlodning madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Milliy musiqa insonning bolalik chog'idan unga bevosita va bilvosita o'zining sirlı ta'sirini o'tkazib, uning kompleks madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining madaniy hayotida kengroq o'rin tutayotgan estetik madaniyat yoshlarga butun hayot davomida doimiy hamrohiga aylanadi. Musiqa – yoshlar yuragiga juda chuqur kirib boruvchi yagona san'atni o'z ichiga olib, qalb tug'yoni yorqin ifodalash qudratiga ega hisoblanadi.

Yoshlarning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini takomillashtirishda estetik madaniyatning barcha komponentlari aniq bo'lishi ularda oliyanob fazilatlarining kamol topishida ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni doimo go'zallikka intilib va kundalik hayotida ana shu go'zallik qoidalariga amal qilib yashashga o'rgatish estetik tarbiyaning amaliy belgilaridan biridir.

Milliy musiqani tinglash orqali yoshlarda mavjud bo'lgan "faol" va "passiv" shakllarga ega bo'lgan musiqa asarlarini tinglash, idrok etish va estetik baholashni talab qilish jarayoni mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir. Faol shakllar tarbiyalanuvchilarning milliy musiqa va milliy qo'shiq asarlarini ijro etishda, ba'zan ularni yaratishda namoyon bo'lib, ko'proq milliy musiqiy mazmunni jonli ijrosi davomida teran anglashi, musiqiy obrazlar xususiyatlarini idrok etishiga olib kelishi natijasida musiqiy tafakkurda estetik qonuniyatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida milliy musiqa merosimiz orqali yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishning innovatsion omillarini ishlab chiqish, bunda "Sharq taronalari", "Maqom", "Baxshichilik" xalqaro ko'rik tanlovlari, "Asrlar sadosi", "Boysun bahori" kabi ilmiy-amaliy anjumanlardan unumli va oqilona foydalanish kerak. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar qator davriy nashrlarda, radio va televideniye eshittirishlarida, internet sahifalarida keng targ'ib qilinishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. –Москва: Республика. 1992. –С. 10
2. Рўзматзода Қ., Қамбаров А.А. Миллий музика – маънавий камолот. Гулистон журнали. –Тошкент. 1996. № 2. –Б. 32-33. Ибрагимова Ф. Ўзбекистонда бадий маданиятнинг янгиланиш жараёнлари. Автореферат. Фал.ф.н. –Тошкент. 2009.
3. Кант И. Сочинения: В 6 т. Т. 6. М., 1966.
4. Қаранг. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Фарбий Европа фалсафаси. – Тошкент. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тағририяти. 2003. –Б. 112
5. Беляев В.М. "Очерки музыкальной культуры народов Узбекистана с древнейших времен". Қўлёзма, 1940-1941 йиллар; Ражабов И.Р. "Мақомлар". – Тошкент. 2021;
6. Ю.Ражабий "Музика меросимизга бир назар". –Тошкент. 1978; Караматов Ф. "Ўзбек халқи музика мероси". –Тошкент. 1978; Фофурбеков Т. Ўзбек профессионал музика ижодининг фольклор манбалари. –Тошкент. 1984.
7. Умаров И.А. "Культурная жизнь Ферганской долины во второй половине XIX начале XX век". –Тошкент. Маннопов С. "Сўнмас наволар". "Фарғона" нашриёти. 2002.